

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 3 (5)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович тарих
фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна тарих
фанлари доктори, доцент *Ўзбекистон*
Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Нарбеков Абдикамил Вафасевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жамоат ҳафсизлиги университети
Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdurasulova Faxriya Bahtiyor qizi BUXORO AMIRLIGI IJTIMOYIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOTINI O'RGANISHDA MANBASHUNOSLIK TAVSIFI	4
2. Abdullayev Akmaljon Xasanbay o'g'li O'ZBEKISTON TARIXI FANIDA DATA SCIENCENING O'RNI	13
3. Ergashev Husan Yusup o'g'li MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIX FANI VA TA'LIMINING RIVOJLANISHIDA O'ZMU TARIX FAKULTETINING O'RNI VA AHAMIYATI	19
4. Кенджаев Якуб Юсупович СОВЕТ ИТТИФОҚИНИНГ ҒАРБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДАН КЎЧИРИЛГАН САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЖОЙЛАШТИРИЛИШИ (1941-1945)	26
5. Kandaxarov Anvar Xasanovich O'RTA ASR DAVLATCHILIGIDA DIN VA TASAVVUF VAKILLARINING TA'SIRI	31
6. Мухамедов Якубджан Кадирович ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИ ВА ВИЗАНТИЯ ЎРТАСИДАГИ ИЖТИМОЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАР	44
7. Нишанбаева Энахон Зарипбаевна ЎЗБЕКИСТОНДА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ИЖТИМОЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШУВИ	54
8. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ БУХОРО ТАНГАЛАРИГА ДОИР	64
9. Toshxujayev Shoxrux Erkin o'g'li BOBURIYLAR SULOLASINING JAHONSIVILIZATSIYASIGA QO'SHGAN HISSASI	74
10. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING BOSHQARILISHIDA KADRLAR MASALASIGA OID SIYOSATI	80
11. Эшқурбонов Фазлиддин Нуралиевич., Аннаев Джалолиддин Тухташевич ТАРМИТА-ТЕРМИЗ БУДДАВИЙЛИК ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ВАЗИФАЛАРИГА ДОИР	87
12. Шакиров Ильяс Рахимзянович ВОПРОСЫ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И КОРОЛЕВСТВА ТАИЛАНД (1991-2016)	101

Abdurasulova F.B.

O'zbekiston tarixi kafedrası tayanch doktoranti.

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

abdurasulova.faxriya@mail.ru

BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOTINI O'RGANISHDA MANBASHUNOSLIK TAVSIFI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Buxoro amirligi tashkil topganidan boshlab, ya'ni 18-asrning 2-yarmidan 20-asrning 20-yillarigacha hukmron sulolalar hayotida diniy ulamolarning tutgan o'rnini ochib berish tarixini o'rganishga bag'ishlangan. Buxoro amirligi davlat boshqaruvida din peshvolarining jamiyat, iqtisodiyot va madaniy hayotidagi o'rnini tarixiy manbalar, qo'l yozmalar orqali muhim ma'lumotlarni beradi. Yaratilgan barcha ilmiy adabiyotlar va maqolalarning tarixiy tahlili uni o'rganilgan vaqti, mazmuni, hududi, yondashuv usuli xarakteriga ko'ra tahlil qilish va tavsiflash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Mang'itlar sulolasi, tarixnavislik, manbashunoslik, so'fiylik, diniy ulamolar, tariqat.

Абдурасулова Ф.Б.

Докторант кафедры истории Узбекистана

Национального университета Узбекистана

abdurasulova.faxriya@mail.ru

ОПИСАНИЕ ИСТОЧНИКОВ ПО ИЗУЧЕНИЮ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОЙ, ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена изучению истории выявления роли богословов в жизни правящих династий от основания Бухарского эмирата, то есть со второй половины XVIII по XX век. Роль религиозных лидеров в государственном управлении Бухарского эмирата в обществе, экономике и культурной жизни дает важные сведения через исторические источники и рукописи. Исторический анализ всей созданной научной литературы и статей позволяет проанализировать и описать ее по времени изучения, содержанию, региону, методу подхода.

Ключевые слова: Бухарский эмират, династия Мангиты, историография, источниковедение, суфизм, религиозные ученые, тарикат.

Abdurasulova F.B.

PhD., student, Department of History,
National University of Uzbekistan
abdurasulova.faxriya@mail.ru

DESCRIPTION OF SOURCES IN STUDYING THE SOCIO-ECONOMIC, POLITICAL AND SPIRITUAL LIFE OF BUKHARA EMIRATE ABSTRACT

This article is devoted to the study of the history of revealing the role of religious scholars in the life of the ruling dynasties from the establishment of the Bukhara Emirate, that is, from the second half of the 18th century to the 20th century. The role of religious leaders in the state administration of Bukhara Emirate in society, economy and cultural life provides important information through historical sources and manuscripts. The historical analysis of all created scientific literature and articles allows to analyze and describe it according to the time of study, content, region, method of approach.

Key words: Emirate of Bukhara, Mangit dynasty, historiography, source studies, Sufism, religious scholars, tarikat.

KIRISH

Buxoro amirligi tarixda Markaziy Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri hisoblangan. Zamonaviy tarixshunoslarning oldidagi asosiy vazifalaridan biri tarixiy yozma manbalardan foydalangan holda amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy hayotini xolisona o'rganishdir. Bu jihatdan yozma manbalar katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Buxoro amirligi va amirlik oilasi haqidagi tarixiy hikoyalar ko'rib chiqiladi. Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri hisoblanadi. Bu jihatdan yozma manbalar nihoyatda katta ahamiyatga ega. Arab tilidagi asl manbalarni aholini ro'yxatga olish va etnografik suhbatlar statistik ma'lumotlari bilan solishtirish orqali tekshirishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu tadqiqotda Buxoro amirligining XIX va XX asr boshlaridagi ijtimoiy tuzilmasi, muhim ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar davri ko'rib chiqiladi. Amirlikning ijtimoiy tabaqalanishiga oid tarixiy tadqiqotlar Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lgani uchungina emas, balki O'rta Osiyoning o'sha davrdagi tarixini ko'rsatib berganligi uchun ham o'z qiymati bilan alohida ajralib turadi. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilgan manbalar Buxoro amirligi tarixini yoritishga imkonini berdi. Maqola uslubiy jihatdan tarixiy jarayonni tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish va manbalarni xolisona tahlil qilishga asoslangan. Muhim manbalar arxiv hujjatlari, yozma manbalar, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha keng qamrovli mahalliy va xorijiy tarixshunoslik, o'tmishdoshlarimiz tomonidan to'plangan barcha narsalarni baholashda

sub'yektivlik, xolis (lekin tanqidiy emas!), asosida o'rganildi. Maqolada ilmiylik, xolislik, tarixiylik bilan bir qatorda tarixiy ma'lumotlarni tizimlashtirish va tarixiy qiyosiy tahlil qilish mantiqiy ketma-ketlik tamoyillariga asoslandi. Buxoroda mang'itlar sulolasining hokimiyatga kelishi va hukmdorlar siyosati tarixiy manbalar, asarlar va ularni o'rganish masalasi tarixiy va ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Buxoro amirligi mang'it sulolari davrida yozilgan tarixi, xronologik asarlar asosan mahalliy tarixnavislar tomonidan yozib qoldirilgan. Bu davrda yozilgan asarlar asosan o'sha davr hukmron sulola vakillarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatiga va diniy ulamolar va ularning davlat boshqaruvi, jamiyat hayotida tutgan o'rniga bag'ishlangan. Ularning ko'pchiligi asosan fors-tojik tilida bo'lib asosan manoqib tarzida yozilgan. Anke fon kyugelgen o'zining «Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.)» kitobida Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi bilan bir qatorda Naqshbandiya -Mujdaddidiya tariqati shayxlari to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi[1]. Yasaviylik an'alarining markaziy qahramoni bo'lgan Zangi otaning nasabnomasida "bobosi" bo'lgan Malik bobo yoki Abdulmalik Bob O'rta Osiyodagi islom avliyolari orasida mashhur bo'lgan[2]. Tadqiqotlar davomida ko'rishimiz mumkinki O'rta Osiyo Naqishbandlik Yassaviylik ta'limotining tarqalish o'choqlaridan hisoblanadi. "So'fiylik turkumi" mavjud tadqiqotlarni yaxshi jamlash yoki ma'lum bir nuqtaga shaxsiy hissa qo'shish orqali so'fiylik bilan bog'liq mavzuga qisqa va to'liq kirishni maqsad qilib qo'ygan. J. Paul, Doctrine and Organization: "The Xwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baho'uddin", Berlin, 1998 yil, O'rta Osiyodagi boshlang'ich naqishbandiylik ta'limoti haqida muhim manbalardan biridir. Muhammad Vafo Karimnagiyning "Tuhfat ul-xoniy" yoki "Tarixi Rahimxoniy", Mirzo Badiy Devonining "Majm al-arqam", "Tarixi manzum" ("Tartibli tarix") va "Futuhoti Amiri ma'sum (Shoh Murod) va Amir Haydar" Mirzo Sodik Munshiy "Toj-ut tavorix" ("Solnomalar toji") Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiy, "Mahazin at-taqvo" ("Taqvo xazinasi" yoki "Taqvodorlar xazinasi") Muhammad Husayn amir Shohmurodning o'g'li, "Tavorix-i Avoil va Avohir" ("Hukmronlik davrining boshlanishi va oxiri tarixi"), Mu'in "Zikri te'dodi podshohoni o'zbek" Muhammad Mirolim Buxoriy "Fathnomayi sultoniy" ("Sulton fathnomasi") Buxoro shahzodasi Muhammad Yoqub ibn amir Doniyolbiy "Gulshan ul-muluk" ("Podshohlar gulshani"), Muhammad Yoqub Mirzoning "Tarixi amironi Mang'itiya" ("Mang'it amirlari tarixi") Mirzo Shams Buxoriy "Buxoro, Qo'qon va Qashqardagi ba'zi voqealar haqida" Mir Salmon Hoji Samarqandiy "Tafsil u bayan-i daulat-i jamoat-i Mangit az zamoni Rahimxon", Ahmad Donish "Mang'it xonadoni tarixining muxtasar tarixi risolasi", Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, "Tuhfayi shohiy" ("Shohga atalgan tuhfa"), "Tarixi salotini mang'itiya" ("Mang'it sultonlarining

tarixi”), Mirzo Salimbek “Tarixi Salimiy”, Sayid Olimxon “Buxoro xalqining hasrati” Tarixi Amir Haydar” (“Amir Haydar tarixi”) ikki muallif – mulla Ibadalloh va Mulla Muhammad Sharif [3], Sadri Ziyoy “Silsilai salotini mangitiya” (“Mang’it sulolasi”), “Tavorix-i Avoil va Avohir” (“Hukmronlik davrining boshlanishi va oxiri tarixi”), noma’lum muallifning “Zikri ta’rix-i Abul-Fayzxon” va Tadqiqotimiz davomida o’rganilayotgan davrda yozilgan asarlarni ikki turga ajratgan holda tadqiqot qilsak birinchi tadqiqot buyurtma asralar Muhammad Vafo Karminagiyy, Muhammad Sharif, Mirzo Sodiq Munshi ya’ni o’sha davrda hukmdorlik qilgan amirlar tomonidan buyurilgan bo’lsa, ikkinchi tadqiqotimiz tarixnavisning o’zining ixtiyoriga ko’ra Miri, Muin, Muhammad Yoqub, Xumuliyy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlardir. Tadqiqot olib borayotgan davrimizda yozilgan asarlar orasida Qozi Vafo Karminagiyyning “Tuhfat ul-xoniy”(“Xonning tuhfası”) yoki “Tarixi Rahimxoniy” asarlari o’zining murakkabligi xronologik ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Qozi Vafo Karminagiyyning “Tuhfat ul-xoniy”(“Xonning tuhfası”) yoki “Tarixi Rahimxoniy” nomli asar hisoblanib xonlikning 1722-1782 davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixiy jarayonlarni o’z ichiga oladi. Bu asraningmuallifi va uning ilmiy faoliyatini o’rgangan manbashunoslar A.A. Semenov [4] N.D. MikluxoMaklay [5], A.M. Mirzoev, A.N.Boldirev kabi tarixchilar ikkita muallifga nisbat berganlar. Uning ilk qismida Muhammad Rahimbiy vafotigacha (1759) bo’lgan davrni qamrab olgan. Asarning ikkinchi qismida 1768/69 yillargacha bo’lgan voqealar bayon etilgan[6]. Qozi Vafo Karminagiyy 1769/70-yil 87 yoshida vafot etadi. Uning biografiyasiga oid adabiyotlar topilmaydi. Asar Muallifi vafotidan so’ng bu kitobni Domulla Validi Niyozqulibek eshon 1782-yilgacha bo’lgan voqealarga qadar davom ettiradi. Mazkur asarning 21 nusxasi bo’lib deyarli barcha nusxalarda voqealar 1769-yilgi voqealar tavsiloti bilan yakunlanadi. Kitobning keying qismidagi ilovalar Dushanbeda saqlanayotgan nusxada mavjud, undagi voqealar bayoni 1782-yilgacha davom ettirilgan. Bu asar tarixchi Muhammad Sharif, Mirzo Sidiq Munshi asarlari qatorida o’zining murakkab yozilganki uni faqat saboq chiqargan odamlargina o’qiy olganlar. Tuhfai xoni asarining bizgacha 21 ta nusxasi yetib kelgan. Abulfayzxonning qiziga uylanib, ashtarxoniylarga kuyov bo’lgan mang’itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahimbiyni ham mavjud an’analarga ko’ra ko’zi bog’langan holda oq kigizga o’tqizib, taxtga chiqarish marosimini o’tkazganlar. Kigizning to’rt burchagini to’rtta yirik o’zbek urug’lari – mang’it, o’tarchi, bahrin va saroy vakillari tutganlar. Shuningdek, kigizning chetini to’rtta yirik diniy ulamolar sulolasi – Maxdumi A’zam Kosoniy, Sayid Ota, Xoja Muhammad Islom Jo’yboriy va Xoja Ahror avlodlari tutib turganlar[7]. Qolaversa traixnavis kitobida ba’zi xronologik ketma ketlikni buzgan holda ba’zida o’sha davr ijtimoiy hayotini ham yoritgan. Muhammad Raximxonning Abulfayzxonning qiziga uylanishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Bu marosimni u Muhammad Raximxonning hokimiyat tepasiga kelishi bilan bog’laydi. Xumuliyyning yozishicha har

yuz yilda Mujaddidiya tariqatini yangilovchi dunyoga keladi. Xumuliyning yozishicha amir Shohmurodning So‘fiy pirlaridan Miyan Fadl Ahmad tomonidan uning vafot etishi xronogrammasi ham bashorot qilingan[8]. Arab diniy matnlari butun Islomiy Osiyoda ma‘lum. Qur‘on hadislari huquqiy, tasavvuf va ilohiyotga oid asarlar mintaqadagi ilohiyot akademiyalarida o‘rganiladi. Ommaviy adabiyotlar ko‘pincha islomga oid va islomgacha bo‘lgan komponentlarning uyg‘unligiga asoslanadi. Yigirmanchi asr davomida arab ilohiyotiy matnlarini Osiyo tillariga tarjima qilish bo‘yicha birgalikda harakatlar olib borildi[9]. Tarixnavis, shoir va kalilograf Amir Muzaffar davrida yashab ijod qilgan (1860-1885) Mirzo Abdulazim Somiydir. Uning tarixiy “Tarixi salatini mangitiya” asarida Buxoro amirligida mang‘it hukmdorlarining tarixi, amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bayon aks ettirilgan. Mang‘itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxonning o‘limi tarixi, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida kurashlar hamda Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligining Toshkent, Jizzax, Samarqandning istilo etilishi bayon etilgan. Tarixnavis yozuvchi Mirza Salimbek Ibn Muhammad Rahim (1850-1930) – tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat 1850-51 yilda Buxoro shahrining Jo‘ybor mavzesidagi Chakar guzarida dunyoga keladi. 1870-71 yili Narpay va Ziyovuddin hokimi Ostonoqulibiyning devoniga ishga kiradi. Yarim yildan so‘ng amir Muzaffar uni Toshkentga maxsus missiya bilan yuboradi. U Toshkentda 12 yil Xitoy choyi savdosi ostida amirning josus sifatida faoliyat ko‘rsatadi[10]. 1881-1882 yilda amir Muzaffarxon uni Toshkentdan chaqirib oaldi va bir necha yil saroyda xizmat qiladi. Ikki yildan keyin Turkiston general gubernatori mansabiga Rozenbax 1884-1889 tayinlanadi[11]. Amir Muzaffarxon Mirza Salimbekni Xitfar va Somjin tumanlariga amlakdorlik vazifasiga tayinlaydi bu mansabda Amir Abdul Ahadxon davrigacha o‘z faoliyatini olib boradi. 1920-yilda Buxoro inqilobida yirik davlat amaldori sifatida bor mol-mulki talon taroj qilinadi. “Tadqiqoti Arki Buxoro” deb atalgan Risola yozadi 1930-yil martida Buxoro shahrida vafot etadi[11]. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” qo‘lyozmasi asosan Buxoro amirligi tarixining Mang‘itlar sulolasining so‘nggi vakillari hukmronligi davridagi voqealarni o‘z ichiga oladi. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asarimuhim tarixiy manba bo‘lib, Buxoro amirligida hukmronlik qilgan so‘nggi amirlar faoliyati, Buxoro amirligidagi shaharlarning hayoti, moddiy madaniyati, hunarmandchiligi, amirlikning boy tarixi haqida ma‘lumotlar berilgan. “Tarixi Salimiy”da Mirzo Salimbek zamondoshlari ijodida uchramaydigan ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Bu faqat Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixiga oid ma‘lumotlar emas, balki tarixiy geografiya, etnografiya va me‘morchilik tarixi hamda alohida beklar tarixiga oid ma‘lumotlardir[12]. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” qo‘lyozmasi asosan Buxoro amirligi tarixining Mang‘itlar sulolasining so‘nggi vakillari hukmronligi davridagi voqealarni o‘z ichiga oladi. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asari muhim tarixiy manba bo‘lib, Buxoro

amirligida hukmronlik qilgan so'nggi amirlar faoliyati, Buxoro amirligidagi shaharlarning hayoti, moddiy madaniyati, hunarmandchiligi, amirlikning boy tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. "Tarixi Salimiy"da Mirzo Salimbek zamondoshlari ijodida uchramaydigan ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu faqat Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixiga oid ma'lumotlar emas, balki tarixiy geografiya, etnografiya va me'morchilik tarixi hamda alohida beklar tarixiga oid ma'lumotlardir. Tarixnavis she'riy asarlarida maishat va gunoh ishlarga byerilgan saroy ayonlari, amirning o'zini ham tanqid ostiga oladi. Bu she'rida "Haqiqat ohanglari zamindan samoga uchadi", deb yozadi u. Haqiqatni voqeilikdan topa olmagan shoirning so'zlari emasmi bu. Tarixchi Somiyning fikricha, amir Nasrulloh (1826-1860 yy.) davrida boshlangan, amir Muzaffar (1860-1885 yy.) davrida kuchaygan davlat inqirozi va xalq qashshoqligi, hukmron tizimining buzg'unchilik kuchi amir Abdulahad (1885-1910 yy.) davrida Buxoroni juda og'ir ahvolga olib keladi. Somiyning fikricha, "ba'zi tajribali oqsoqollar Buxoro davlati inqirozi sanasini ushbu amir Nasrulloh taxtga o'tirgan paytdan sanay boshlaydilar va ular o'ylagandek bo'lib chiqdi. Amir Bahodirxon o'ttiz besh yil podshohlik va 1277 (1860 (61)) yili dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qildi". Uning o'rniga taxtga o'tirgan amir Muzaffar Somiyning yozishicha, "ezish va adolatsizlikdan otasidan ham o'tib ketdi... Sekin asta ish shariat qoidalarining buzilishiga qadar borib taqaladi". Muallif Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyatda Muzaffarxonni ayblaydi, chunki u o'z manfaatlaridan boshqasini o'ylamay, ruslar Toshkentni qamal qilganidan foydalanib, Qo'qonga hujum uyushtiradi. Mirzo Salimning asarlarida o'sha davr Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, xalqining turmush tarzi va yashash sharoitlari yorqin aks ettirilgan. Biroq, Somiydan farqli o'laroq, Donish ruhoniylarning faoliyatini ham tanqidiy baholadi, ular amir kabi raqib haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, ulkan olomonni yig'ib, qo'liga kaltak berib, jihod yurishiga majbur qilgan va bu bilan aniq o'limga yuborgan. Abdulazim Somiy ham Ahmad Donish singari feodal hukmdorlari haqida ham keskin fikr bildirib, xalqning og'ir ahvolini yorqin bo'yoqlarda tasvirlashgan. "Tarixi ko'shko'li asarida Buxoro xonligi hokimiyati mang'itlar qo'liga o'tishi Muhammad Raximxonning mashvarat qilganligi Chingiziylar avlodlari bo'lgan hozirgi podshohlik ham tanazzulga uchragani aytib boshqa hukumat tuzish niyatini aytadi va Buxoroga kelgach Xo'ja Jo'yboriylar bilan mashvarat qilib Abulfayzxonni davlatni boshqarishda ojizdir degan xulosaga keladi[11]. Bunda shu yaqqol ko'rinib turibdiku Jo'ybori shayxlari nafaqat Buxoro xonligida balki amirlik ijtimoiy-siyosiy hayotida ham o'z mavqelarini saqlab qolgan. Islom qonunlarida belgilangan marosim majmuasi - besh vaqt namoz, zakot, Ramazon oyida ro'za tutish va Makkaga ziyorat qilish - butun mintaqada ma'lum va amalda. Ommaviy dinning boshqa turlari musulmon mutasavviflarining (so'fiylarning) dinga kirish jarayonida o'ynagan muhim rolini aks ettiradi. Bularga avliyolar qabrlarini

ziyosat qilish, Qur'on tilovati, shifo marosimlari kiradi [9]. So'fiylik tariqatlari ijtimoiy-siyosiy, va diniy hayotda ham muhim o'rin tutadi. 20-asrda ham Volga-Ural bo'ylaridagi yangi avlodlar Buxoroga madrasalarda ta'lim olishlari uchun kelishgan sababi bu yerda an'anaviy ta'lim tizimi hanuz saqlanib qolgan edi[9]. Muhammad Nasriddining "Tuhfat az-zoirin" kitobida yozishicha Amir Shohmurod hokimiyat tepasiga kelishi bilan bir qancha islohotlarni amalga oshiradi. U tomonidan o'tkazilgan chora tadbirlar: Qushbegi, qozikalon, va boshqa ulug' zotlarga berilgan vakolatlarini chekladi va mutloq hokimiyatning paydo bo'lishiga olib keladi[14]. Shohmurod kamtarona turmush tarzini olib bordi. "U hech qanday dunyoviy va ma'naviy ne'matlarga ahamiyat bermadi. Uning ustidagi liboslari hattoki 12 dirhamga baholangan. U hattoki ochligini qondirish uchun bo'yinturuq pishirib yegan[14]. Amir Shohmurod (1785-1800) davrida amalga oshirilgan islohotlar islom shariat normalarini ham bir qancha tartibga keltirdi [15]. Buxoro amirligida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan tarixnavis, shoir va kalilograf Amir Muzaffar davrida yashab ijod qilgan (1860-1885) Mirzo Abdulazim Somiydir. Uning tarixiy "Tarixi salatini mangitiya" asarida Buxoro amirligida mangit hukmdorlarining tarixi, amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bayon aks ettirilgan. Mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxonning o'limi tarixi, Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida kurashlar hamda Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligining Toshkent, Jizzax, Samarqandning istilo etilishi bayon etilgan. XIX asr o'rtalarida. Mirzo Shams Buxoriyning tarixiy asari (vafoti 1860-yil) yozilgan "Bayan'i ba'ze havadisat'i Buxoro va Hukand va Qashqar" ("Buxoro, Qo'qon va Qashqardagi ba'zi voqealar tavsifi"). Bu asar rus sharqshunosi V.V.Grigoryevning tashabbusi tufayli paydo bo'ldi. Mirzo Shams Buxoriy bilan shaxsan tanish bo'lgan V.V.Grigoryev barcha xotiralarini yozib qo'yishni taklif qildi. 1861 yilda Qozonda V.V.Grigoryevning eslatmalari bilan kitob nashr etildi[16]. Keltirilgan manbalarda Buxoro amirligining aniq fanlar bilan shug'ullangan ayrim ulamolari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Samarqandning tarixiy-topografik tarixini o'rganishga bag'ishlagan "Samariya" (1853) asarining muallifi Abu Tohir Qozi Abu Said Samarqandiydir [17]. U o'z asarida ulamolar, so'fiylar va hukmdorlar qabrlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni bayon qiladi.

XULOSA

Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan qator manbalarda shuni ko'rishimiz mumkin bu davr tarixnavslari orasida tarixni yoritishda xronogrammalardan foydalanish an'anasi bo'lgan. Buxoro amirligi mang'it sulolalari hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib ayniqsa, Amir Shohmurod faoliyati davrida davlatchilikning tarqaqiy etib shakllanishi va yuksalganligini guvohi bo'ldik. Buxoro amirligining ijtimoiy tuzumi, davlat boshqaruvi va xo'jalik hayotda islom dini va uning normalarini qanday kuch va

ta'sirga ega bo'lganligi to'g'risida xulosalar chiqaramiz. Tarixiy merosimizni o'rganish, ilmiy tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalarimizdan biridir. Buxoro amirligi davlatchiligi tarixiga oid qadimiy qo'l yozma manbalar yoki mahlliy O'rta Osiyo tarixnavislari tomonidan yozib qoldirilgan qimmatli asarlarni, ilmiy tadqiq etilgan rus va chet el adabiyotlarini, milliy adabiyotlarimizni o'rganish ham bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanib, uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etib, manbalar, arxiv hujjatlari orqali xolislik bilan yaqindan o'rganib, fanga yangiliklar kiritish, bugungi va kelajak avlodni haqqoniy tarixdan xabardor qilish zarurligini bildiradi. Shuningdek, tarixiy davlatchiligimizda din ulamolarining jamiyat ma'naviy, siyosiy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini ham o'rganish, ularning murakkab tarixiy sharoitdagi faoliyatlariga oid alohida tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Mavzuni har tomonlama o'rganish hamda batafsil yoritish uchun tarixiy asarlar bilan bir qatorda ilmiy, mahlliy hamda xorijiy adabiyotlardan foydalanilishga harakat qilindi.

Buxoro amirligining ma'naviy-ma'daniy jarayonlarida din ulamolarining iqtisodiy va siyosiy qudrati ularga naqshbandiylik doirasida ko'plab muridlar orttirishi, eng qizig'i hattoki amirlarning ham ularning muridlari saflariga qo'shilishi ular ishonchini qozonishi, muridlarni har tomonlama moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash vas hu yo'l bilan jamiyatda o'zlari uchun ijtimoiy tayanch yaratish imkonini berdi. Buxoro amirlarining xofizlar sahhoflar tariqat ahliga homiyligi jamiyat ma'naviy hayotida ular e'tiborining oshishiga olib keldi. Ular tomonidan qo'llab quvvatlangan shaxslar esa xonadonning ixlosmandi va do'stlariga aylandilar. Ulamlarning madaniy sohada faoliyati o'sha davr raiyat orasida qolaversa tarixchilar tomonidan tahsinga loyiqdir. Buxoroda adabiy muhitni yaratish, diniy xo'jalik ahamiyatiga molik binolarni qurish, bog'lar barpo etish borasida din vakillari tomonidan amalga oshirilgan chora tadbirlar Buxoro ma'naviy – madaniy hayoti rivojiga katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

IQTIBOSLAR / ЧОСКИ / REFERENCES

1. Анке фон Кюгельген Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алматы.: Дайк-пресс, 2007. стр 516 ; Kügelgen, Anke von. Die Entfaltung der Naqšbandīya muğaddidīya // Muslim Culture. Vol. 2.
2. Bustanov, A., & Korusenko, S. (2014). Genealogies of the Siberian Bukharans: The Shikhovs1. Archaeology Ethnology and Anthropology of Eurasia, 42(4), 136–145.<https://doi.org/10.1016/j.aear.2015.06.014>.
3. Джурабаев Д.Х. Бухарский эмират во второй половине XVIII- первой половине XIXвв. в письменных источниках: доктора исторических наук...дис. авторе.-Душанбе, 2014. 14 б.
4. Семенов А.А. Каталог. I. №101. Краткий каталог суфийских произведений.- С.97. № 959.

5. Миклухо-Маклай Н.Д. Описание таджикских и персидских рукописей Института востоковедения. -М., Л., 1955.
6. Мухиддинова, М. (2023). XVIII аср охири ва XIX аср бошлари Бухоро тарихига доир асарлар ва уларнинг тарихий-илмий таҳлили. Общество И Инновации, 4(8/S), 278–288. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss8/s-pp278-288>
7. Замонов, А. (2023). Buxoro amirlarining kelib chiqishiga doir mulohazalar. Общество И Инновации, 4(2), 22–29. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp22-29>
8. Анке фон Кюгельген Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алматы:Дайк-Пресс,2004 г. 203 стр.
9. Woodward, M. R. (2015). Islam: Asia. In Elsevier eBooks (pp. 727–730). <https://doi.org/10.1016/b978-0-08-097086-8.84015-5>
10. Р. Холикова Россия-Бухоро:Тарих Чоррахсида (XIX асрнинг иккинчи ярми — XX аср бошлари).-Т.: Ўқитувчи, 2005. 46 б.
11. Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий. Таворихи мутакаддимин ва мутааххирин./ Форс-тожик тилидан узбекчага доцент Нарзулло Йулдошев угирган,- Бухоро: Бухоро нашриёти, 2003.
12. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. – Тошкент,2009.
13. Б.М.Бабаджанов, А.К.Муминов, А.фон Кюгельген “Диспуты мусильманских религиозных авторитетов в Центральной Азии в 20 веке Алматы.: Дайк-пресс, 2007. стр 16.
14. Мухаммад Насриддин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат ал - зоирин,/ Перевод, предисловие, комментарии Х, Тураева, -Ташкент, 2003, -С,40.
15. Мирза Абдал Азим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийа,...-С. 51-52.
16. Григорьев В.В. О некоторых событиях в Бухаре, Хоканде и Кашгаре // Записки Мирзы-Шемса Бухари / пер. и прим. В. В. Григорьева. Казань, 1861. – С. 169.
17. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда Абу ТахирХоджи / пер. В.Л.Вяткина // Справочная книжка Самаркандской области (СКСО). VI. – Самарканд, 1898.